

832-sonli shartnomaga asosan
Kabelli telefonkanalizatsiyasi qurilmalarini ijaraga berish

SHARTNOMASI

Toshkent shahri

05 yanvar 2022y.

“O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi, “Toshkent shahar telefon tarmog‘i” filiali keyingio‘rinlarda – “Ijaraga beruvchi” deb ataladi, nomidan Nizom va 30.12.2021 yil, №27-01-14/6019-sonli ishonchnoma asosida ish yurituvchi direktori Rustamov F.Sh., bir tomondan ATB, Turonbank nomidan, ishonchnoma №02. 05.01.22 asosida ish yurituvchi bo‘sh ko‘chi o‘zimbos koldibayev S.T. keyingio‘rinlarda “Ijaraga oluvchi” deb ataladi, ikkinchi tomondan, birgalikda «Tomonlar» deb ataluvchilar, quyidagilar bo‘yicha mazkur shartnomani tuzdilar:

1 SHARTNOMA MAZMUNI

- 1.1. “Ijaraga beruvchi”, Tomonlar ma’suliyati chegaralari hamda loyihaga muvofiq tarzda, “Ijaraga oluvchiga” yer osti quvur uzatmalari va ulardan foydalanishni ta’minlovchi moslamalar (quduqlar, qutilar) dagi kabelli telefonkanalizatsiyasi qurilmalarini, “Ijaragaberuvchining” telefon simlarini o‘tkazish uchun ijaraga beradi. “Ijaragaberuvchining” ma’suliyat hududi deb, uning hisobida turuvchi, ichidan “Ijaraga oluvchining” telefon simlariga, telefonkanalizatsiya qurilmasining raqami, aloqa kabellarini o‘tkazish vaqtida, kelishilgan holda loyihaga muvofiq taqdim etiladi.
- 1.2. Telefonkanalizatsiya qurilmasining raqami, aloqa kabellarini o‘tkazish vaqtida, kelishilgan holda loyihaga muvofiq taqdim etiladi.
- 1.3. Shartnoma qiymati va telefonkanalizatsiyasining umumiy uzunligiga bog‘liq ravishda narxlar o‘zgarganda, ijaraning umumiy qiymati hamqayta hisoblanadi, ijaraga olingan telefonkanalizatsiya qurilmalari ro‘yhati, mazkur Shartnomaning 1-sonli ilovasida keltirilgan.
- 1.4. Kabelni o‘tkazish ishlari, ijara shartnomasi imzolanganidan so‘ng amalga oshiriladi, telefonkanalizatsiya qurilmasini oldindan band (бронь) qilish mumkin, bu holatda ijara shartnomasi tuziladi, ammo kabel o‘tkazish ishlari «Ijaraga oluvchi» tomonidan kechiktirib amalga oshirilishi mumkin, ammo bunda kechiktirish muddati ijara shartnomasi imzolangan vaqtdan so‘ng bir yildan kechikmay o‘tkazilishi kerak.

2. SHARTNOMA QIYMATI VA TO‘LOV TARTIBI

2.1. Telefonkanalizatsiya uchun tarmoq resurslarini ajratish va ijara narxi

| Kabel turi | Xo‘jalik tashkilotlar uchun 1 kan/km KTK uchun yillik ijara qiymati, QQS bilan (kan. Tashqi diametri kan. 100mm.) | Kabelning tashqi diametri gacha (mm) | Foydalaniladigan telefonkanalizatsiyasining uzunligi (km) | 1kan/km uchun oylik ta’rif (so‘m, QQS bilan) | Ijara davri | Oylik ijara to‘lovi (so‘m, QQS bilan) | Umumiy ijara shartnomasi qiymati (so‘m, QQS bilan) |
|--------------------------|---|--------------------------------------|---|--|-------------------------------|---------------------------------------|--|
| OTK (optik tolali kabel) | 16 286 445.88 | 0.2 | 1.283 | 271 440.76 | Yanvardan Dekabrgacha 2022 y. | 348 258.50 | 4 179 102.00 |

- 2.2. Telefonkanalizatsiya qurilmalarini ijara xizmati uchun to‘lov, shartnomaga asosan, pul o‘tkazish yo‘li bilan to‘lov topshiriqnomasiga (to‘lovtalabnomasi, hisob-fakturaga) ko‘ra O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida amalga oshiriladi. “Ijaraga oluvchi” oylik ko‘rsatilayotgan xizmat uchun 100% oldindan to‘lovni, shartnomaga muvofiq, hisob talab nomasiga ko‘ra joriy oyning 14-sanasiga qadar amalga oshiriladi.
- 2.3. O‘zbekiston Respublikasining Moliya Vazirligi, Aloqa Vazirligi, “O‘zbektelekom” AK qaror va farmoyishlariga asosan ta’rif va kalkulyatsiya, shuningdek energiya tashuvchilar, kommunal xizmat, yonilg‘i va moylash materiyallari narxlari o‘zgargan taqdirda “Ijaraga oluvchi”, yuqoridagi o‘zgarishlar amalga kiritilgan vaqtdan boshlab, ijara haqini yangi tarif va kalkulyatsiyaga muvofiq to‘laydi.
- 2.4. Vaqtincha band qilish, kanal va kanalizatsiya joylarini ijaraga olibishlatish uchun to‘lov, “Ijaraga oluvchidan” tuzilgan ijara shartnomasiga asosan yagona tarif bo‘yicha qabul qilinadi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3.1. “Ijaraga beruvchining” majburiyatlari:

- 3.1.1. Belgilangan tartibda o‘z texnik koniyatlaridan kelib chiqqan holda, loyiha va tomonlar kelishuviga muvofiq, telefonkanalizatsiya qurilmalarini, unda “Ijaraga oluvchi” ning VOLSturdagi kabellarini o‘tkazish uchun ajratish. Kabellarning turlari, sig‘imi, masofasi, ko‘cha marshrutlari va “Ijaraga oluvchining” ma’lumotlariga binoan o‘tkazilgan kabellar bo‘yicha boshqa kerakli ma’lumotlar telefon markazlarining texnik hujjatlarida aks ettirilishi kerak;
- 3.1.2. Telefonkanalizatsiya qurilmalariga xizmat ko‘rsatish, ularni ta’mirlashni O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi tomonidan tasdiqlangan texnik me’yorlarga va ish rejasiga asosan amalga oshirish;

- 3.1.3. Qo'riqlanadigan hududlar vakanalizatsiya qurilmalarida o'tkazilayotgan qurilish ishlarini amalga oshirayotgan tashkilotlar faoliyatini "Aloqa liniyalarini qo'riqlash"ga muvofiqligini texnik jihatdan nazorat qilish. "Ijaraga oluvchini", uning kanalida o'tkazilayotgan qurilish ishlaridan, "Ijaraga oluvchi"ning so'roviga ko'ra ogohlantirish;
- 3.1.4. Uchinchi tomon tashkilotlari tomonidan aloqa kabellarini yotqizish vata mirlash uchun kabel kanallarida ishlash uchun belgilangan tartibda ruxsatnomalar berish;
- 3.1.5. "Aloqa liniyalarini qo'riqlash qoidasi"ga muvofiq chegaralarda, kabelkanalizatsiyalarining holati bo'yicha suliyatini o'z zimmasiga olish;
- 3.1.6. O'z kabelkanalizatsiya qurilmalarida avariya va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, ularni bartaraf qilish va kanalizatsiya qurilmalarini tezkor muddatlarda tiklash uchun muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish. "Ijaraga oluvchining" belgilangan tartibda berilgan yozma shakldagi murojatiga ko'ra, avariyaning bartaraf qilish ishlariga ish vaqtining bir sutkasi davomida ruxsat berish;
- 3.1.7. "Ijaraga oluvchiga" tegishli kabellar telefon kanalizatsiyada shikastlanganda, ushbu holat sabablarini aniqlash va dalolatnoma tuzishda ishtirok etish.

3.2. "Ijaraga oluvchining" majburiyatlari:

- 3.2.1. Ajratilgan telefon kanalizatsiyasida, aloqa kabeli yotqazish bo'yicha loyihaviy, tashkiliy va texnik shartlarni bajarish. Telefon markazidan kabelkanalizatsiyasini montaj ishlari uchun qabul qilish va o'z kabellarini yotqizish, hamda montaj qilish ishlari tugagandan so'ng, telefon markaziga dalolatnoma orqali, belgilangan muddatda topshirish;
- 3.2.2. Telefon kabel kanalizatsiyasini gijarasi uchun to'lovni, kalkulyatsiyava mazkur shartnomada ko'zda tutilgan talablarga ko'ra amalga oshirish;
- 3.2.3. Axborot texnologiyalariva kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi tomonidan tasdiqlangan texnik me'yorlar va o'zaro kelishilgan shartlarga asosan, ijaraga olingan aloqa kabellarini, o'z ma'suliyati hududida texnik ekspluatatsiyasini amalga oshirish. Shartnoma bekor qilinganda, "Ijaraga oluvchi" demontaj ishlari o'zkuchi va mablag' hisobidan amalga oshiradi;
- 3.2.4. O'z aloqa uskunalari avariya va favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda, ularni bartaraf qilish va aloqani belgilangan muddatlarda tiklash uchun muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish. Zarur holatlarda ishlarni bajarish muddatlari, belgilangan tarzda uzaytiriladi;
- 3.2.5. O'z ma'suliyati hududida, Axborot texnologiyalariva kommunikatsiyalarini rivojlantirish Vazirligi tomonidan tasdiqlangan texnik me'yorlarga muvofiq kabel kanalizatsiyasida ruxsat berilgan ishlarni bajarish vaqtida, o'z aloqa kabellari va boshqa qurilmalarning texnik holatiga javobgarlikni o'z zimmasiga olish;
- 3.2.6. Shartnoma amal qilish muddati tugaganda, "Ijaraga oluvchi" ijaraga olingan kanalizatsiyadankabellarini demontaj qilish ishlarini o'z mablag'i hisobidan amalga oshiradi, agar tomonlar kelishuviga ko'raboshqa shartlar ko'zda tutilmagan bo'lsa;
- 3.2.7. Texnik hisob ishlarini yuritish maqsadida, kabellarning turlari, sig'imi, masofasi, ko'cha marshrutlariva o'tkazilgan kabellar bo'yicha boshqa kerakli ma'lumotlarnitelefon markazlarigataqdim etishdir.

4. FORS-MAJOR

- 4.1. Mazkur Shartnoma majburiyatlarini bajarmagan yoki qisman bajargan tomonlar, agar ushbu majburiyatlarni bajarish, Shartnoma imzolanganidan so'ng vujudga kelgan, hamda shartnoma talablarini bajarishga bevosita ta'sir etgan favqulodda vaziyat, ya'ni yengib va bartaraf etib bo'lmaydigan holatlar: yong'in, suv toshqini, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, aloqa tarmoq simlari o'g'irlanishi, Xukumatning tezkor harakatlaritufayli imkonsiz bo'lganligini isbotlagan taqdirda, javobgarlikdan ozod qilinadi.
- 4.2. Favqulodda vaziyat (fors-major) ta'sirida o'z vasifasini bajara olmagan Tomon, boshqa Tomonni, yuqoridagi vaziyatlar boshlangan vaqti va tugaganligidan xabardor qiladi.
- 4.3. Ushbu vaziyat vujudga kelgan vaqtdan boshlab 15 (o'n besh) kalendar kuni davomidaxabar berilmagan taqdirda, Tomon o'z vazifasini bajarilmaganligi uchun sababqilib yuqoridagilarni keltirish huquqidan mahrum bo'ladi.

5. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

- 5.1. Shartnomaning 2-bandida keltirilgan to'lov muddatlarini kechiktirganlik uchun, "Ijaraga oluvchi", har bir kechikkan kun uchun, to'lanishi lozim bo'lgan qiymatning 0,4%, lekin to'lanishi lozim bo'lganto'lov qiymatining 50% ko'p bo'lmagan miqdoridapenya to'laydi.
- 5.2. "Ijaraga beruvchining" texnik xizmat ko'rsatish hududidagi uskunalarining shikastlanish holatini bartaraf qilish uchun me'yoridan ko'p sarflangan nazorat vaqti uchun, belgilangan uskunani almashtirish uchun sharoit yaratmaganligi uchun, "Ijaraga beruvchi" ijara haqini qayta ko'rib chiqadiva ko'rsatilmagan xizmat uchun 0,5%, ammoko'rsatilgan xizmat qiymatining 50% ko'p bo'lmagan miqdorida penya to'laydi.
- 5.3. Mazkur Shartnoma bandlarini bajarmagan yoki noto'g'ri bajargan Tomon, boshqa Tomonga yetkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq to'lab beradi.
- 5.4. "Ijaraga beruvchi", "Ijaraga oluvchining" aloqa kabellarining saqlanishi bo'yicha suliyatini zimmasiga olmaydi.
- 5.5. Mazkur Shartnoma bandlarini bajarmaslik yoki o'z vaqtida bajarmaganligi uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgardir.
- 5.6. Vujudga kelgan ziddiyatlarga ijobiy yechim topish maqsadida Tomonlar kelishish muzokaralarini o'tkazadilar.
- 5.7. Tomonlarning muzokora yo'li bilan hal etilmagan bahs-munozaralari, O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq, Toshkent tumanlararo iqtisodiy sud tomonidan hal etiladi.
- 5.8. Mazkur Shartnomaning, belgilangan tartibdar asmiylashtirilgan barcha ilovalari uning bo'linmas qismi hisoblanadi.

5.9. Mazkur Shartnomada ko'zda tutilmagan tartib-qoidalar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

5.10. Manzil, bank yoki boshqa rekvizitlar o'zgartirilgan taqdirda, Tomonlar o'zgarish sodir bo'lgan sanadan 10 (y) kalendar kunidan kechikmay boshqa Tomonni xabar berish kerak.

6. ALOHIDA TALABLAR

6.1. Tomonlar quyidagilarni ta'minlash bo'yicha o'zaro hamkorlik qilishadi:

- ❖ Axborot xavfsizligi,
- ❖ telekommunikatsiya uskunalari qirishning belgilangan tartibi,
- ❖ aloqa tarmoqlarida ishlash qoida va me'yorlarini bajarish,
- ❖ yong'in xavfsizligi,
- ❖ texnika xavfsizligi,
- ❖ tezkor-tadqiqot choralari
- ❖ telekommunikatsiya tizimlarini yuqori kuchlanishlardan, tok va yuqori chastotalardan zarur bo'lgan texnik vositalar bilan himoya qilish.

6.2. Tomonlar mazkur Shartnoma shartlarining bekor qilish tufayli yuzaga kelgan zararni, boshqa Tomonga qoplab beradi.

6.3. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishga uchinchi shaxslarni jalb qilgan Tomon, boshqa boshqa Tomon oldida, uchinchi shaxsning Shartnoma bandlarini bajarmagan yoki o'z vaqtida bajarmaganligi uchun, xuddi o'z harakatlari kabi javobgar hisoblanadi.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Mazkur Shartnoma O'zbekiston Respublikasining Fuqorolik Kodeksini 357-bandida belgilangan tartibda, 2022 yil 01 yanvar kuni kuchga kiradigan 2022 yil 31 dekabrga qadar amal qiladi, agar Tomonlardan biri Shartnoma amal qilish vaqti tugashidan bir oy oldinuning bekor qilinishini talab qilmasa.

7.2. Mazkur Shartnomaga, yangi qabul qilingan va yuqori turuvchilik tashkilotlar tomonidan tasdiqlangan Qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar, shuningdek, Tomonlar taklifi va ijaraga olingan qurilmalar orasidagi masofalarni o'zgarishi bilan bog'liq o'zgarishlar, qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

7.3. Mazkur Shartnomaga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar, Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra, yozma kelishuv (bayonnoma) yoki shartnomaga kiritilgan ilova shaklida, Tomonlar vakillari imzolari bilan tasdiqlangan holatdahaqiqiy hisoblanadi.

7.4. Mazkur Shartnoma quyidagi sharoitlarda bekor qilinadi:

- Tomonlar kelishuviga ko'ra;
- birtomonlama, boshqa Tomon shartnoma bo'yicha o'zgartirilgan majburiyatlarni bajarmagan holatda;

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga vako'zda tutilgan boshqa holatlarda;

- ushbu shartnoma imzolangan sanadan boshlab, bundan oldingi shartnoma o'z kuchini yo'qotadi.

7.5. Shartnoma muddati, agar mazkur shartnomaning amal qilish muddatidan biroy oldin Tomonlardan biri uni bekor qilish bo'yicha murojaat qilmasa, keying yilga uzaytirilgan deb hisoblanadi.

8. TOMONLAR MANZIL VA BANK REKVIZITI

“Ijaraga beruvchi”

“O'zbektelekom” AK “TSHTT” filiali

Toshkent sh., 100084
Kichik halqa yo'li, 2A-uy :
H/r 2021 0000 6040 5040 8073
ATAloqabank Amaliyot boshqarmasi
Bank kodi: 00401, STIR: 203 366 731
AOFT kodi (OKED): 61100
Tel: 71 235 47-40



Direktor
F. Sh. Rustamov

Yuridik boshliq
B. Xydayberganov

TTEOZ boshlig'i
SH. SHOaxrorov

TXFBXKB boshlig'i
G. Nabiyeva

“Ijaraga oluvchi”

АКБ «ТУРОНБАНК»

г. Ташкент, ул. Абая, 4а. тел.: 144-60-00

Р/с:

в ЦОУ АКБ «Туронбанк»

ИНН: 201 055 208 ОКОНХ: 96120 МФО: 00444



S.T. Kaldibayev

№ 42 19.01.2025

Ilova № 1

№ shartnomasiga 832

«_____»2022 y.


**MTBbo`yicha ijaraga olingan kanalizatsiya
maydonlari ro`yhati**

| № T/R | O`tzazish (yotqazish) trassasi, oxirlovchi qurilmanomi, kabel kanalizatsiyasining kanal raqamlari | Kabel turi | Ijaraga olingan kabelkanalizatsiya ning uzunligi (km) | Eslatma |
|-------|---|------------|---|---------|
| 1 | | BO1C | 1.283 | |
| | | | | |
| | | | | |



F.Sh.Rustamov

M.O'



S.T.Kaldibayev

M.O'